ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UO'K: 37.013.2
ORCID: 0009-0006-4843-7764

ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti
Tayanch doktoranti
SitoraIkromovnaA@gmail.com

INNOVATSION FAOLIYAT – TA'LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida maqolada innovatsion faoliyatning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyat ta'lim yoki boshqa sohada mavjud muammoni hal qilish, yangi mahsulot xizmat yaratishga qaratilgan yoki takomillashtirishga asoslangan, aniq maqsadli natijaga ega tizimli faoliyatdir. Shuningdek, ushbu maqolada loyiha asosida o'qitishning samaradorligi hamda uning ta'lim sifatini oshirishga ta'siri ilmiy asosda bayon etiladi.

KALIT SO'ZLAR: *innovatsion faoliyat, loyiha asosida o'qitish, pedagogik innovatsiya, samaradorlik, kompetensiya.*

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется роль и значение инновационных проектов в образовательном процессе. Инновационный проект - это системная деятельность, направленная на решение существующей проблемы в образовании или другой области, создание нового продукта или услуги, или основанная на совершенствовании, с четко определенным целевым результатом. Также в данной статье на научной основе излагается эффективность проектного обучения и его влияние на повышение качества образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *инновационный проект, проектное обучение, педагогическая инновация, эффективность, компетенция.*

INNOVATIVE ACTIVITY AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

ABSTRACT: This article analyzes the role and importance of innovative projects in the educational process. Innovative project is a systematic activity with a specific targeted result, aimed at solving an existing problem in education or another field, creating a new product or service, or improving it. This article also scientifically explains the effectiveness of project-based learning and its impact on improving the quality of education.

KEYWORDS: *innovative project, project-based learning, pedagogical innovation, effectiveness, competence.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida barcha sohalarda jumladan, ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilyapti. Asosiy vazifa - raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Bu esa o'z navbatida an'anaviy o'qitish metodlaridan tashqari, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi va muammoli ta'limlardan foydalanish o'quvchini faollikka undaydi. Bundan tashqari, AKTdan foydalanish, multimedia vositalari, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali o'tishida rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda turli usullardan foydalanish, aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. nnovatsiya esa bu olingan natijalar asosida yangilik yaratish yoki mavjud narsani takomillashtirishdir. Ta'lim samaradorligini oshirish ko'p omillarga bog'liq. Har bir fan va mavzu uchun aniq, o'lchab bo'ladigan natijalar belgilash, nazariy bilim bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham rejalashtirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR: O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida mamlakatimizda ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarorida ta'lim sifatini oshirish masalalari bo'yicha vazifalar uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish jarayonini tashkil etish ham o'z ahamiyatiga ega. Bundan tashqari, M.Otaboyeva "Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion o'qitish texnologiyalarining o'rni" mavzusida tadqiqot olib borgan. U o'z tadqiqotlarida ta'lim sifatini oshirishda innovatsion o'qitish texnologiyalarining ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Muallifning fikricha, ta'lim sifatini oshirish faqat mazmunni yangilash bilangina emas, balki o'qitish metodlari va texnologiyalarini modernizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. B.L.Farberman esa O'zbekistonda ilg'or pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsion yondashuvlar nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, innovatsion yondashuvlar ta'limda o'quvchi shaxsini markazga qo'yish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi,degan fikrlarni aytib o'tgan.

Shuningdek, u o'qitish jarayonida interfaol metodlardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan. Olimning ilmiy ishlari pedagogik texnologiyalarni nazariy jihatdan asoslash bilan birga, ularni amaliyotda qo'llash yo'llarini ham ko'rsatib beradi. J.G'. Yo'ldoshev esa ta'limda yangilanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sifatni oshirish bo'yicha, innovatsion jarayon vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig'indisidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Dars jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va loyiha asosida o'qitish usullarini qo'llash o'quvchilarning faolligini kuchaytiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi ortadi, darsga qiziqishi kuchayadi va ijodiy yondashuvlari rivojlanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlik yuzaga keladi, ta'lim jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'ladi. Ekskursiyalar, laboratoriya ishlari, loyihalar va elektron resurslar orqali amalga oshirilgan innovatsion yondashuvlar natijasida o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'ladi. Bu usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni yechish va amaliy ishlarni bajarish qobiliyatini oshiradi. Natijada, ta'lim jarayonida amaliy mashqlar va zamonaviy resurslardan foydalanish, o'quvchilarning kompleks rivojlanishiga, ularning bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga imkon yaratadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuv ta'lim tizimi sifatini oshirish va uning rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Innovatsion yondashuv o'qitish jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yangi pedagogik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning faolligini oshiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantiradi, ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan holda tashkil etishga imkon yaratadi. Natijada o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Demak, ta'lim sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, zamonaviy pedagogik

ISSN: 3060-4761

texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda o‘qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish muhim vazifalardan biridir. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, bilimli va ijodkor kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sifati - bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat quyidagi jihatlar orqali ta’lim sifatini oshiradi:

- o‘quvchilar mavzuni mustaqil o‘rganadi, ma’lumot to‘playdi va tahlil qiladi.
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi.
- o‘quvchilar yangi g‘oyalar ilgari suradi va ularni amaliyotda sinab ko‘radi.
- guruhli loyiha faoliyati muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi.
- real natijaga erishish jarayoni o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident farmoni PF-6108. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari, 6 noyabr 2020 yil.
2. Otboyeva, M. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion o‘qitish texnologiyalarining o‘rni. – Toshkent, 2019.
3. Farberman, B. L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar nazariyasi. – Toshkent, 2018.
4. Karimov, Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi. – Toshkent: Pedagogika, 2020.
5. Xalilov, R. Innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim sifatini oshirish metodikasi. – Samarqand, 2021.